

IKKI TILLILIKNING BOLA NUTQI RIVOJIGA TA'SIRI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17370903>

Mirkasimova Zilola Alisherovna

*O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
zilolaxakimova0083@gmail.com*

Annotation

Ikkinchi tilni maktab yoshidan boshlab o'rganishni boshlagan bolalar ham o'sha tilda yozish, o'qish, tarjima qilish, suhbat qurish kabi ko'nikmalarga ega bo'lishlari mumkin, albatta. Ammo ikkinchi tilni kichik yoshdan boshlab o'zlashtirishni boshlagan bolalarda keyinchalik bu til ularning ona tilisi kabi mukammal darajaga ko'tariladi va ular ikki tilda erkin muloqot qilish qobiliyatiga ega bo'la oladilar.

Kalit so'zlar

Ikki tilli muhit, erta bilingvallikning havfi, kommunikativ va intellektual rivojlanish.

Ko'pchilik ota-onalar va ba'zi pedagoglarda erta bilingvallikka oid qo'rquv mavjud bo'lib, bu bilingvallik ba'zan o'quvchilarda chalkashlikni keltirib chiqarishi bilan bog'liq: ikkinchi tilni o'rganayotgan bola ya'ni ularning nutqida ko'pincha tillarni aralashtirish hodisasi yuz beradi, ya'ni bolalar o'zlarining ona tillarida gaplashayotganida, ikkinchi tildagi so'zlarni ishlatadilar yoki aksincha. Bitta jumlada ikki tildagi so'zlarni aralashtirib qo'llaydigan bolalar tili, haqiqatan ham, chalkashliklarning «isbotidir». Biroq tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, so'z "kod"larini aralashtirish ikki tilning bir vaqtda o'zlashtirilishidagi odatiy holatdir. Kodlashtirish ma'lum mazmunga ega bo'lgan lisoniy hodisalarga muayyan tartibdagi lisoniy belgilarni berilishi bo'lib, Kod, odatda, muayyan ko'rinishda ijtimoiy kelishuv asosida qabul qilinadi va ma'lum bir madaniy muhitda amalda qo'llanadi. Shuni ham ta'kidlash kerakki, aralashtirish nafaqat bolalar, balki kattalarga ham xos xususiyatdir.

Ayrim tadqiqotchilar, masalan, E.Lanza fikricha, yosh bolalarning (bir tilli, ikki tilli) so'z birikmalari zahirasi cheklangan bo'ladi. Shunday ekan, kichik yoshdagi bolalarning ikkinchi tildan bilmagan so'zlarini "qarzga" olishini chalkashlik emas, aslida zukkolik deb qaralishi kerak. Bir vaqtning o'zida ikki tilni aralashtirib gapirishni odatiy hodisa deb tushunish ham kerak.

Ko'p yillik amaliyot shuni ko'rsatadiki, bolalik davridagi ikki tillilik har bir tilning bola hayotida tutgan o'rni, qaysi vaziyatlarda qay darajada ikki tildan foydalanishiga qarab rivojlanadi. Maktabgacha yoshda ikki tillilikni shakllantirishning aksariyat holatlari quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- ikki tilli oilada tug'ilgan bola, bir tildan ikkinchi tilga o'tish muhitida tarbiyalanadi;

- oilada bola ona tilida muloqot qiladi, oiladan tashqarida (qo'shnilar, tengdoshlar va boshqalar bilan muloqotda) ikkinchi tilda gaplashish orqali til o'zlashtirib boriladi;

- bola maktabgacha ta'lim tashkilotlarida mashg'ulot mobaynida hamda undan tashqari vaqtlarda ikkinchi tilni maqsadli egallaydi.

Respublikamizda ham ikki tillilikni maktabgacha yoshdan boshlab shakllantirish borasida bir qator ilmiy izlanishlar olib borilgan, bularga defektolog olimlar L.R.Mo'minova va M.Yu.Ayupovalar, tilshunos olimlar R.M.Qodirova, F.R.Qodirova, G.X.Jumasheva, N.Sh.Nurmuhamedova, G.T.Maxkamova, G.A.Berdialiyeva, Sh.H.Akbarova, E.K.Mo'ydinovlarning tadqiqot ishlarini misol qilib keltirish mumkin. Ushbu ilmiy tadqiqotlarda qayd etilgan fikrlar, bir vaqtning o'zida ikki tilni o'zlashtirish bolaning ongi va nutqi rivojiga hech kanday salbiy ta'sir ko'rsatmasligini, aksincha, ikki tilni bilish bolani e'tiborli hamda tilni o'ziga xos xususiyatlariga sezgir qilishini, o'zining nutqini nazorat qilishni rivojlantirishi isbotlangan. Ularda bilingvallik fikr va nutqning to'g'ri uzatilishiga katta hissa qo'shadi, degan nuqtai nazar ilgari surilgan.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining ta'lim, fan, madaniyat masalalarini rivojlantirish bo'yicha YUNESKO tashkiloti tomonidan maktabgacha ta'lim tashkilotlarini rivojlantirish hamda bolalarga maktabgacha yosh davridanoq xorijiy tilni o'rgatish masalalarini amalga oshirish maqsadida qator anjumanlar, seminarlar o'tkazilgan.

Xususan, 1962-yil YUNESKOning qarori bilan Angliya va Uelsda, bolalarga yosh davridanoq chet tilini o'rgatish borasida tajriba-sinovlar o'tkazildi. Tajribalar natijasida xorijiy til ona tili ko'nikmalariga ijobiy ta'sir ko'rsatganligi, bolalarning bilim salohiyati va madaniyati oshganligi ma'lum bo'lgan. Shuningdek, 80-yillarda AQSh va Kanada universitetlarida olib borilgan tadqiqotlar ham ikki tilda so'zlashuvchi bolalarda kognitivlik xususiyati faqat bir tilni biladigan bolaga qaraganda ancha yuqori ekanligini namoyon qilgan. Tadqiqotlar bunday bolalarda o'qish ko'nikmalari ham erta shakllanishini ko'rsatgan.

Ushbu tajribalar, tadqiqotlar natijasida 1985-yilda YUNESKOning millatlararo anjumanida turli xil davlatlardan tashrif buyurgan mutaxassislar tomonidan

bolalarga yosh davridanoq xorijiy tilni o'rgatishning quyidagi talab va tavsiyalari ishlab chiqildi:

1. Bolalar tilni muloqot vositasi sifatida o'rganishlari lozim, bu esa ularda idrok etish faoliyatini, mantiqiy fikrlash doirasini va dunyoqarashini rivojlantiradi hamda buning natijasida til orqali boshqa davlatning urf-odati va madaniyati bilan yaqindan tanishadi.

2. Bolalar chet tilini 4-7 yoshdan o'rganishni boshlashlari maqsadga muvofiq, bolalar bu davrda o'z ona tilini o'zlashtirgan bo'lishadi va yangi tilga ko'nikma hosil qila olishadi.

2004-yili maktabgacha ta'lim muassasasi tarbiyalanuvchilariga chet tilini o'rgatish masalasi bo'yicha o'tkazilgan yig'ilishda YUNESKOning bosh rahbari Koitiro Masuura so'zga chiqib, har bir millat bolalari o'z milliyligini saqlagan holda chet tilini o'rganishlari lozimligi va bunday usul bolalarning rivojlanishiga, boshqa fanlarni oson o'zlashtirishga samarali ta'sir etishini ta'kidladi. Bolalarda kichik yoshdan bilingvallikni shakllantirish, ayni vaqtda ularning ona tillarini ham barobar rivojlantirib borish tajribasi bir qator xorijiy mamlakatlarda amaliyotga tatbiq etilganini va samarali natijalar berganini qayd etish mumkin.

Shuni ham ta'kidlash kerakki, ikki tilli oilada dunyoga kelgan bolalarning kommunikativ hamda bilish kompetensiyalari bir tilli bolalarnikidan biroz yuqoriroq bo'ladi. Muayyan mashg'ulotlar olib borilgan guruh bolalarining ikki yoki undan ortiq tillarni o'zlashtirib borishi ham birmuncha oson kechadi. Bundan ko'rinib turibdiki, bilingvizm bilish hamda kommunikativ kompetensiyalar o'rtasida uzviylikni ham ta'minlab beradi. Shu bois til o'rganishda kattalarda uchraydigan to'siqlar maktabgacha yoshdagi bolalarda bo'lmaydi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Akbarova Sh.H. Maktabgacha yoshdagi bolalarga ingliz tili leksikasini o'rgatish metodikasi: Diss... p.f.f.d. (PhD). - T., 2020. - 165 b.

2. Berdialieva G.A. Maktabgacha ta'lim muassasalari nutq o'stirish mashg'ulotlarida bolalarni mustaqil fikrlashga o'rgatish metodikasini takomillashtirish // dis... p.f.f.d. (PhD)- T., 2019. - 178 b.

3. Isaqulova N.J., Qosimova Z.N. Xorijiy mamlakatlarda ta'lim /o'quv qo'llanma/ - T., 2011. - 105 b.

4. Jakobson R. On language. - Cambridge MA: Harvard University Press, 1990.-274 p.

5. Lanza E. Language mixing in infant bilingualism: A sociological perspective. - Oxford University Press, 2004.

6. Moydinova E.K. Maktabgacha ta'lim muassasalarida ingliz tilini o'rgatish xususiyatlari. – T., 2016. – B. 20.
7. Pearson B. Z. Raising a bilingual child. – New York: Random House, 2008.
8. Wei L. Dimensions of bilingualism. In Wei, L., editor, The Bilingualism Reader, pages 3–25. – New York: Routledge, 2000.
9. Жумашева Г.Х. Формирование основ культуры общения у дошкольников в театрализованных играх. – Н., 1997.
10. Кадырова Р.М. Обучение диалогической речи на русском языке детей 5-6 лет в детских садах и школах Узбекистана. Т.: "Учитель". – 1993 г.
11. Кадырова Ф.Р. Дидактические игры в обучении детей русской разговорной речи в узбекском детском саду: Дис... канд. пед. наук. М.,1988. – 202 с.
12. Материалы международного совещания экспертов ЮНЕСКО-МАПРЯЛ.М. – Изд-во АПН, 1985. – С 222.
13. Махкамова Г.Т. Формирование навыков и умений устной иноязычной речи у дошкольников (5-6 лет): Автореф. Дис... канд.пед.наук. – Т.: УзГУМЯ, 2004. – 238 с.
14. Муминова Л.Р., Аюпова М.Ю. Коррекционно - педогогическая работа с детьми дошкольного возраста по преодолению у них недостатков речи, фонетико-фонематической недостаточности.
15. Нурмухамедова Н.Ш. Развитие связной речи на русском языке у старших дошкольников в условиях двуязычия: Дисс... кан.пед. наук. – Т., 2003. – 254с.
16. Нурмухамедова Н.Ш. Развитие связной речи на русском языке у старших дошкольников в условиях двуязычия: Дисс... кан.пед. наук. – Т., 2003. – 254с.
17. Шаг в будущее. Основная общеобразовательная программа дошкольного образования / Под ред. Т.С. Комаровой, С.М. Авдеевой, И.И.Комаровой. – М., 2013.